

**To'ylardagi chiqimlar**

*O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
XALQARO JURNALISTIKA*

*fakulteti talabasi **Ismoilova Malika Ismoilovna***

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda global mavzularga aylanib borayotgan to'ylardagi chiqimlar haqida shuningdek uning hozirgi hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar;** To'y, chiqimlar.*

Hamмамizga ma'lumki, to'y-bazm tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlarining umumiy nomi. Biz o'zbeklarda nikoh to'yi, beshik , to'yi, xatna to'yi, hovli to'yi va boshqa turdagi to'ylar o'tkaziladi.

“Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”, deb yozadi Marhum Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch” asarida. To'ydан muddao — yaxshilik. Bejizga maqolamning bosh qismini, to'ylarni birma-bir sanashdan boshlamadim. Hozirga kunda zamon talabimi yoki to'qlikka sho'xlikmi , to'ylarimizda ortiqcha chiqim hamda hashambozlik haddan ziyod ko'pib ketdi. Bundan uch to'rt yilcha oldingi COVID19 tarqalgan paytdagi karantin holatidagi to'ylarni eslaydigan bo'lsak , 100 kishilik to'y ham bo'lib o'tgandi .Hattoki, aksariyat insonlar 50 kishilik to'y ham qilgandi. Umuman olganda , inson baxti to'yga ketgan sarf xarajat yoki to'yga kelgan minglab insonlar bilan o'lchanmaydi. Shu o'rinda mana shunday chiqimbozliklar, ko'pgina janjal va oilalarning kelishmovchiliklariga olib kelmoqda . Bu esa ajrimlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Biz o'zbeklar qo'shnimiz ikki etajli uy qursa, bizniki

uch etajli bo'lishini xohlaymiz. Ammo , keyinini o'ylamaymiz, o'zimizga savol bermaymiz. Menga shu hashambozlik nega kerak ? deya o'ylamaymiz. Aslida , oddiy fayzli to'ylarga nima yetsin, oddiylikka nima yetsin. Bir kunlik to'y uchun butun boshli harajat, isrofgarchilikning nima keragi bor? Yana bir achinarli holat to'ydan keyin to'yga ketgan chiqim harajatlarning qarzlarini to'lash maqsadida yosh kuyovlarning chet elga safarbar bo'layotgani ham ko'pgina ajrimlarga sabab bo'lmoqda. Hukumat qarori bilan O'zbekiston respublikasida nikoh to'yilarida milliylikni saqlagan holda dab-dababozlikka berilmay , isrofgarchiliksiz, ixcham o'tkazishga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilindi va ko'plab shu mavzuga doir tadbirlar tashkil etilyapti.

Zero, xalqimizda shunday naql bor;

“Odiylikda halovat ko'p”.

Bu hayotda moddiy boy emas, balki ma'naviy ham boy bo'lish kerak. Qachonki , insonda ma'naviy boylik bo'lsa, tafakkuri shakllansagina halovat topadi va ko'pgina xatolarga qo'l urmaydi. Zero, To'y- farovonlik belgisi , isrofgarchilik emas!

### **Foydalangan adabiyotlar;**

1. Islom Karimov asarlari
2. Xalq maqollari